



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№4

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 4-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба

чоп этилади.

Ўзбекистон худудида

тарқатилади.

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,

Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д., профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

И.Б.Маттиев – СамИСИ профессори, DSc

Sanjar Baxronkulovich Boboqulov Samarqand viloyatida uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish	75
Фарангис Азамовна Ишанкулова Олий таълим хизматлари рақобатбардошлигига таъсир этувчи омилларнинг иқтисодий-математик модели	81
Севара Абдиназаровна Бабаназарова Таълим хизматлари тушунчаси ва уларнинг инсон ресурсларини шакллантиришдаги роли ва аҳамияти	87
Shohina Xujmaxmatovna Pirova Mamlakatimiz iqtisodiyotida ichimlik suvi ta'minoti xizmatlarining tutgan o'rni va ahamiyati	91
Ибодулла Хасанович Ибрагимов, Лариса Алижоновна Мусабоева Цифровой реинжиниринг бизнес-процессов в сервисных компаниях Узбекистана	95
Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova Ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatini baholash tizimi va innovatsion samaradorlikni oshirish imkoniyatlari	99
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Елена Вячеславовна Голышева Индикаторы устойчивого туризма как инструмент регионального развития (на примере Ферганской области)	102
To'liqin Saidahmedovich Sharipov, Muxabbat Ismatjon qizi Umirzoqova Turizm xizmatlari sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	110
Azizjon Shukrilloevich Berdimurodov Hududlarda turizm sohasini barqaror rivojlantirish mexanizmining tashkiliy va metodologik asoslari	114
Shuxratjon Sultonovich Sayfutdinov Turizmni barqaror rivojlantirishda blokcheyn texnologiyalarining innovatsion imkoniyatlari	118
Dostonbek Furqat o'g'li Tilovmurodov Surxondaryo viloyatida sarguzasht turizmi va speleoturizm faoliyatini tashkil etish imkoniyatlari	122
Shohro' Baxtiyorovna Navruz-zoda Yoshlar turizmini rivojlantirishning konseptual asoslari	128
Farida Abduxalimovna Axmedjanova, Bekjon Nizom o'g'li Ismatillayev Turizm va mehmondo'stlik sohasida xalqaro standartlarni milliy tizimga uyg'unlashtirish masalalari	136
Йылмаз Улви Узун Влияние колебаний цен на нефть, глобальных торговых войн и прямых иностранных инвестиций на экономический рост страны	139
Askar Axrorovich Siddiqov Mehmonxona korxonalarini boshqarish shakli va asosiy yondashuvlar	147
Diyoira Farhod kizi Bahriddinova Innovative directions for the development of youth-oriented tourism and economic mathematical models for assessing the service potential of tourism enterprises	150
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Шохида Ильясовна Артикова, Дониёр Искандарович Насимов Поддержка и развитие малого бизнеса в сфере услуг в Республике Узбекистан: институциональные механизмы, динамика и перспективы	156

Askar Axrorovich Siddiqov – SamISI, “Menejment” kafedrası dotsenti v.b.

MEHMONXONA KORXONALARINI BOSHQARISH SHAKLI VA ASOSIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Maqolada mehmonxona sanoati, uning global va O‘zbekiston tajribasi tahlil qilinib, xizmat sifati, xodimlar madaniyati va boshqaruv tizimlari uyg‘unligi asosiy ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatilgan. Franchayzing, sindikatlash va ijara mexanizmlari sanoatning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta‘minlashdagi samarali vosita sifatida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: franchayzing, sindikatlash, ijara tizimi, global tajriba, O‘zbekiston standartlari, turistlarni joylashtirish, raqobatbardoshlik, barqaror rivojlanish, Ritz modeli, Holiday Inn modeli, ixtiyoriy mehmonxona tizimlari, marketing mexanizmlari.

Kirish. Mehmonxona sanoati – ishlab chiqarish madaniyati va xodimlarning xulq-atvori bilan bevosita bog‘liq noyob korxonalar majmuasidir. Unda menejrlarning shikoyatlarni hal qilishdagi faoliyati ko‘pincha muammo sababini emas, aybdorni aniqlashga yo‘naltiriladi. Boshqaruvchining bilim va ko‘nikmalari esa faoliyatning turli sohalarini qamrab olishi lozim. Tadqiqot xalqaro tarmoq mehmonxonalarini (Marriott, Intercontinental, Sheraton, Metropolitan, Hilton) va United Airlines faoliyatini tahlil qiluvchi xorijiy nashrlarga asoslangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Walker (2020) mehmonxona sanoati menejmentini tizimli va strategik yondashuv bilan o‘rganishga e‘tibor qaratadi. Kitobda mehmonxona biznesining asosiy boshqaruv tizimlari, jumladan, Ritz, Holiday Inn va ixtiyoriy tizimlar batafsil tahlil qilingan. Muallif franchayzing, ijara va sindikatlash kabi boshqaruv mexanizmlarini amaliy misollar bilan tushuntiradi, ularning biznesning tez rivojlanishi va moliyaviy risklarni kamaytirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Shuningdek, Walker standartlashtirish va xizmat sifati ta‘minlashning muhimligini ta‘kidlaydi, bu esa O‘zbekistondagi turizm va mehmonxona sohasidagi standartlar bilan uyg‘unlashadi. Kitobdagi tavsiyalar zamonaviy menejment tamoyillari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, maqolada ko‘rilgan global tajribani tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot mehmonxona sanoatining boshqaruv tizimlari, franchayzing, ijara va sindikatlash mexanizmlari hamda xizmat sifati ta‘minlash tamoyillarini chuqur o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – jahon tajribasidagi Ritz, Holiday Inn va ixtiyoriy tizimlar modellarini tahlil qilib, ularning samaradorligini O‘zbekistondagi turizm xizmatlari standartlari bilan solishtirish.

Tahlil va natijalar. Jahon mehmonxona sanoatida 1950-yillardan beri uchta asosiy tashkiliy model shakllangan. Birinchisi, **Ritz modeli**, shveysariyalik tadbirkor Sezar Rits nomi bilan bog‘liq bo‘lib, an‘anaviy yevropa hashamati va zodagonligini aks ettiradi. Ushbu model so‘nggi yillarda inqirozga yuz tutmoqda: so‘nggi 25 yil ichida “palas” uslubidagi ikki milliondan ortiq xona asta-sekin foydalanishdan chiqarildi.

Ikkinchi model – **Holiday Inn modeli**, amerikalik tadbirkor Kemmons Uilson tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, mijozlarning istak va talablarini qondirishga yo‘naltirilgan yuqori sifatli xizmatni ta‘minlashni ko‘zda tutadi. Ushbu modelning asosiy xususiyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: uslubiy va me‘morchilik uyg‘unligi, tez ro‘yxatga olish, doimiy mijozlar uchun maxsus xonalar, “shved stoli” usulida nonushta, anjumanlar zali, moslashuvchan narx siyosati hamda yagona boshqaruv, marketing va aloqa tizimi. Bugungi kunda global mehmonxona xonalarining 50 foizi ushbu modelga asoslanadi.

Uchinchi model – **ixtiyoriy mehmonxona tizimlari** (“Best Western”, “Romantic Hotels” va boshqalar) bo‘lib, bu modelda ma‘lum bir brend va standartga ega mehmonxonalar bitta tarmoq ostida birlashtiriladi. Tizim a‘zolari birgalikdagi jamg‘armaga mablag‘ kiritadi va markazlashgan marketing hamda qo‘shma tadbirlar orqali foyda oladi.

O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining davlat standarti, 21.09.2017 yildagi 05-811-sonida ham aynan “Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari” haqida standart joylashtirish vositalari va ularda taqdim etiladigan xizmatlarga doir umumiy talablarni belgilaydi

Turistlarni joylashtirish obyektlarining standart tasnifi¹

Toifalar	Turlar	Guruhlar
1. Jamoaviy joylashtirish vositalari	1.1. Mehmonxonalar	1.1.1. Mehmonxonalar 1.1.2. O‘xshash korxonalar
	1.2. Maxsus korxonalar	1.2.1 Sog‘lomlashtirish sohasi korxonalari 1.2.2 Dam olish oromgohlari 1.2.3 Jamoat transporti 1.2.4 Anjumanlar markazlari
	1.3. Boshqa jamoaviy korxonalar	1.3.1. Dam olish uylari 1.3.2 Kemping 1.3.3. Boshqalar
2. Individual joylashtirish vositalari	2.1. Individual joylashtirish vositalari	2.1.1 Xususiy uylar 2.1.2 Ijaraga olingan joylar 2.1.3 Ijaraga olingan uy 2.1.4 Qarindoshlar uyida yashash (bepul)

Manba: Jahon sayyohlik barometri BMST. Madrid. BMST. 2022.

Franchayzing boshqaruv tizimi. Mehmonxona sanoatida franchayzing keng qo‘llaniladigan samarali boshqaruv mexanizmidir. Ushbu tizim kompaniyalarga tashqi investitsiyalarni jalb qilgan holda tezkor rivojlanish imkonini beradi. Asosiy shart shundaki, franchayzer o‘z brendi, texnologik yechimlari, bronlash tizimi, marketing tadqiqotlari va chegirmalar mexanizmini nazorat qilgan holda litsenziyani saqlaydi. Litsenziat esa ushbu mulkni mustaqil boshqarish huquqini kelishilgan shartlar asosida oladi. Franchayzing nafaqat tajribasi va obro‘si yetarli kompaniyalar uchun, balki moliyaviy resursga ega bo‘lsa-da, tajribasiz tadbirkorlar uchun ham samarali rivojlanish yo‘lini taqdim etadi. Ba’zi franchayzerlar alohida obyektlarga, boshqalar esa butun korporativ tizimga litsenziya beradi.

Howard Johnson franshizasi. 1927-yildan boshlab Howard Johnson o‘z mehmonxonalarini franshiza shaklida rivojlantira boshladi. Bu strategiya kompaniyaga tezkor kengayish imkonini berdi: avval Sharqiy sohilda, keyin Markaziy G‘arbda va 1960-yillarda Kaliforniyada faoliyatini kengaytirdi. Bugungi kunda tizimga 900 dan ortiq restoranlar kiradi. 1952-yilda Kemmons Uilson oilaviy dam olish imkoniyatlarini maqbul narxlarda ta‘minlash maqsadida Holiday Inns mehmonxonalar tarmog‘ini yaratdi. Tez o‘shish franchayzing tizimi orqali amalga oshdi. Mehmonxonalar keng xonalar, ikki karavotli ota-ona va bolalar joylashuvi, restoran va uchrashuv zallari bilan jihozlandi, shuningdek, xizmatlar doimiy ravishda kengaytirildi va zamonaviylashtirildi.

Mehmonxona ijara tizimi. 1950–1960-yillarda mehmonxona biznesida lizing keng qo‘llanila boshladi va hozirgacha samarali hisoblanadi. Ushbu tizim ijarachi va kompaniyaga bozorga tez kirish hamda daromad olish imkonini yaratadi, odatda tushumning 20–50% ijaraga beriladi. Masalan, Hilton kompaniyasining Puerto-Riko, San-Xuan shahridagi mehmonxonani ijaraga olishi xalqaro kengayishning boshlanish nuqtasi bo‘ldi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat muassasalari bilan hamkorlikda lizing tizimi keng qo‘llanadi; masalan, Kuba Hilton mehmonxonasida xonalar bandligi pasayganidan so‘ng, kelajakda foyda ulushi asosida boshqaruv shartnomasi joriy qilindi, bunda asosiy to‘lov yalpi daromadning 5% va operatsion daromadning 10% miqdorida belgilandi.

Mehmonxona sindikatlash tizimi. Sindikatlash mehmonxona biznesida yirik moliyaviy resurslarni birlashtirish va risklarni samarali taqsimlash mexanizmi sifatida keng qo‘llaniladi. Ushbu jarayon investorlar, kompaniyalar va mehmonxona egalari o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlaydi, moliyaviy xatarlarni kamaytiradi va katta loyihalarni moliyalashtirishni osonlashtiradi. Shu bilan birga, sindikatlash xarajatlarni optimallashtirish, xizmat sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Bu tizim mehmonxona va restoran

¹ Siddiqov. A.A, Usmanova. N.M. “Mehmonxona va restoran menejmenti”. O‘quv qo‘llanma, SamISI, Samarqand, 2025.- 180 b.

tarmoqlari o‘rtasidagi strategik integratsiyani chuqurlashtirib, sanoatning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Xulosa va takliflar. Mehmonxona sanoati – ishlab chiqarish madaniyati, xodimlarning xulq-atvori va sifatli xizmat ko‘rsatishga bevosita bog‘liq murakkab tizimdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, menejrlarning faoliyati ko‘pincha muammoning sababini aniqlashdan ko‘ra aybdorni topishga yo‘naltiriladi, bu esa xizmat sifatiga ta’sir qiladi.

Jahon tajribasida uch asosiy model – Ritz, Holiday Inn va ixtiyoriy tizimlar – mavjud bo‘lib, ularning har biri turli mijoz ehtiyojlarini qondirish va biznesni rivojlantirishga xizmat qiladi. Franchayzing, ijara va sindikatlash tizimlari esa mehmonxona sanoatining global kengayishi, investitsiya jalb qilish va risklarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda belgilangan standartlar va turistik tasnif mehmonxona xizmatlarining sifatini oshirish, tizimni samarali boshqarish va raqobatbardoshlikni ta’minlash imkonini beradi. Shu bilan, mehmonxona sanoatining muvaffaqiyati zamonaviy boshqaruv, xodimlar salohiyati va moliyaviy-strategik hamkorlikning uyg‘unligiga bog‘liqdir. Jumladan yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib quyidagi takliflarni beraman:

1. Mehmonxona korxonalarida xizmat sifati va mijoz ehtiyojlarini qondirish uchun markazlashgan boshqaruv, franchayzing va ijara tizimlarini menedjment tamoyillari asosida integratsiyalash zarur.
2. Sindikatlash tizimi moliyaviy resurslarni birlashtirish, risklarni kamaytirish va katta loyihalarni moliyalashtirish orqali mehmonxona biznesining barqaror rivojlanishini va raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Standartlashtirish, Metrologiya va Sertifikatlashtirish Agentligi (2017). *Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Davlat standarti 05-811*. Toshkent. – Mahalliy turizm standartlari va mehmonxona tasnifi bo‘yicha rasmiy hujjat.
2. Siddiqov. A.A, Usmanova. N.M. “Mehmonxona va restoran menejmenti”. O‘quv qo‘llanma, SamISI, Samarqand, 2025.- 180 b.
3. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). (2022). *World Tourism Barometer*. Madrid: UNWTO. – Global mehmonxona sanoati statistikasi va tahliliy ma’lumotlar manbai.
4. Walker, J.R. (2016). *Introduction to Hospitality Management* (7th ed.). Pearson. – Franchayzing va ijara tizimlari, xizmat sifati va mehmonxona operatsiyalari asoslarini o‘rgatadi.
5. Lashley, C., & Morrison, A. (2000). *In Search of Hospitality: Theoretical Perspectives and Debates*. Oxford: Butterworth-Heinemann. – Mehmonxona sanoatining nazariy asoslari, xizmat ko‘rsatish va menejment nazariyasi.

<p>А.Сиддиков</p> <p>Формы управления гостиничными предприятиями и основные подходы</p> <p>Аннотация. В статье анализируется гостиничная индустрия, ее глобальный и узбекский опыт, показывается, что качество обслуживания, культура персонала и гармония систем управления имеют первостепенное значение. Анализируются механизмы франчайзинга, синдицирования и аренды как эффективные инструменты обеспечения устойчивого развития и конкурентоспособности отрасли.</p> <p>Ключевые слова: франчайзинг, синдикация, система аренды, глобальный опыт, стандарты Узбекистана, размещение туристов, конкурентоспособность, устойчивое развитие, модель Ritz, модель Holiday Inn, добровольные гостиничные системы, маркетинговые механизмы.</p>	<p>A.Siddikov</p> <p>Forms of hotel management and basic approaches</p> <p>Abstract. The article analyzes the hotel industry, its global and Uzbek experience, and shows that the harmony of service quality, employee culture, and management systems is of primary importance. Franchising, syndication, and lease mechanisms are analyzed as effective tools for ensuring the sustainable development and competitiveness of the industry.</p> <p>Keywords: franchising, syndication, rental system, global experience, Uzbekistan standards, tourist accommodation, competitiveness, sustainable development, Ritz model, Holiday Inn model, voluntary hotel systems, marketing mechanisms.</p>
--	---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.12.2025 йилда теришга берилди. 16.12.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0143А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.